



PROBATSIIYA XIZMATINING MUAYYAN HUQUQDAN MAHRUM QILISH JAZOSINI IJRO ETISHDA KORXONA, MUASSASA VA TASHKILOTLAR BILAN HAMKORLIGI

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi 3-kurs 337-guruh kursanti
Usmonov Xumoyun Xurshidbek o'g'li*

Annotatsiya: Maqolada probatsiya xizmatining muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini ijro etishdagi o'rni va korxona, muassasa hamda tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyati tahlil qilingan. Unda hamkorlikning huquqiy asoslari, ijtimoiy-psixologik jihatlari hamda probatsiya tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar yoritilgan. Shuningdek, mehnat jamoalarining huquqiy madaniyatini oshirish orqali takroriy jinoyatlarning oldini olish masalasiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Probatsiya, huquqdan mahrum qilish jazosini ijro etish, ijtimoiy rehabilitatsiya, hamkorlik, korxona va tashkilotlar, profilaktika, psixologik yondashuv, ijtimoiy mas'uliyat, mehnat jamoasi, nazorat tizimi.

O'zbekiston Respublikasida jinoyat siyosatini insonparvarlik va ijtimoiy adolat tamoyillari asosida olib borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Shu ma'noda, probatsiya xizmati tizimi shaxsni jamiyatdan ajratmagan holda, u bilan ijtimoiy, psixologik va huquqiy ishlashni tashkil etuvchi muhim institut sifatida alohida ahamiyatga ega. Xususan, muayyan huquqdan mahrum qilish jazosini ijro etish jarayonida probatsiya xizmati organlari korxona, muassasa va tashkilotlar bilan uzviy hamkorlikda faoliyat yuritadi [1].

Mazkur hamkorlikning asosiy maqsadi — jazoni o'tayotgan shaxsning ijtimoiy mehnat faoliyatini saqlab qolish, uni jamiyat hayotiga ijobiy tarzda qayta jalb etish va takroriy huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat. Probatsiya organlari bu jarayonda nafaqat nazorat funksiyasini bajaradi, balki ularning huquqlarini himoya qilish, ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va mehnat jamoasida sog'lom psixologik muhitni shakllantirishda vositachi sifatida ham qatnashadi.

Korxona va tashkilotlar bilan hamkorlik, avvalo, muayyan huquqdan mahrum etilgan shaxslarning mehnat faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish, ularning mehnat intizomiga rioya etishini ta'minlash hamda ijtimoiy rehabilitatsiyasini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Masalan, haydovchilik yoki pedagoglik huquqidan mahrum etilgan shaxslar boshqa yo'nalishlarda mehnat faoliyatini davom ettirishlari mumkin. Probatsiya xizmati esa bu



jarayonni qonun doirasida muvofiqlashtiradi va tegishli korxona rahbarlari bilan hamkorlikda nazorat olib boradi [2].

Bundan tashqari, probatsiya inspektorlari muassasa va tashkilotlarda muntazam tushuntirish ishlari olib borib, xodimlar o'rtasida huquqiy madaniyatni oshirish, jinoyat va huquqbuzarliklarga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu esa nafaqat jazoni o'tayotgan shaxsning, balki mehnat jamoasining ham ijtimoiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Probatsiya xizmatining hamkorlik tizimi samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, yagona elektron nazorat tizimini yaratish, korxona va tashkilotlar bilan o'zaro ma'lumot almashish mexanizmini kuchaytirish zarur. Shuningdek, ushbu hamkorlik jarayonida psixologik maslahat, ijtimoiy yordam va huquqiy ko'mak kabi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish probatsiya faoliyatining samaradorligini yanada oshiradi [3].

O'zbekiston Respublikasida inson manfaatlarini himoya qilish, shaxsni tuzatish va jamiyatga qayta moslashtirish siyosati doirasida probatsiya tizimining ahamiyati ortib bormoqda. Shu bois, probatsiya organlarining korxona, muassasa va tashkilotlar bilan o'zaro hamkorligi jinoiy jazolarning ijtimoiy oqibatlarini yumshatish, jamiyatda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishdagi faoliyatni takomillashtirish kelgusida jinoyatchilikning kamayishiga, mehnat jamoalarida sog'lom muhitning mustahkamlanishiga hamda shaxsni ijobiy o'zgarishlarga yo'naltirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Probatsiya to'g'risida”gi Qonuni, 2019-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Inson manfaatlarini himoya qilish – islohotlarning bosh maqsadi”. Toshkent, 2021.
4. Karimov I.A. “Huquqiy demokratik davlat barpo etish yo'lida”. Toshkent: O'zbekiston, 1997.